

MULLA BOZOR OXUND MAJMUASI

Abdullayev Zohidjon Tolibjon o'g'li

Namangan davlat universiteti

Tarix yo'nalishi, 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda Namangan shahrida joylashgan madaniy me'rosimizning yirik namunalaridan biri, noyob arxitektura yodgorligi hisoblangan Mulla Bozor Oxund majmuasi qurilishi tarixi, uning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar beriladi. Yodgorlikning qurilish uslubi va o'ziga xosliklari, bugungi kundagi holati qisqacha yoritiladi.

Kalit so'zlar: Namangansoy, Hazrat Olimxo'ja, darvozaxona, Novuz, Boborahim Mashrab, Niyoz Oxund ibn Jaloliddin Zominiy, Masjid, Maqbara.

Аннотация: В данной статье представлена информация об истории строительства комплекса Мулла Базар Охунд, который считается одним из крупных образцов нашего культурного наследия, уникального памятника архитектуры, его жизни и деятельности. Будет кратко объяснен стиль строительства и особенности памятника, а также его нынешнее состояние.

Ключевые слова: Намангансой, Хазрат Олимходжа, сторожка, Пул, Боборахим Машраб, Нияз Ахунд ибн Джалалуддин Замини, Мечеть, Могила.

Annotation: This article provides information about the history of the construction of the Mulla Bazar Okhund complex, which is considered one of the major examples of our cultural heritage, a unique architectural monument, and its life and activities. The construction style and peculiarities of the monument, as well as its current state, will be briefly explained.

Key words: Namangansoy, Hazrat Olimkhoja, gate house, Pool, Boborahim Mashrab, Niyaz Akhund ibn Jalaluddin Zamini, Mosque, Tomb

Namanganga tashrif buyursangiz, albatta undagi mahobatli arxitektura yodgorliklari sizni o'ziga jalb etadi. Ulardan biri Namangan shahrining Labbaytog'a dahasi, Kurashxona mavzeyi Namangansoy sohilida joylashgan Mulla Bozor Oxund yodgorligi majmuasi xalqimizning tabarruk maskanlaridan biridir. Mulla Bozor Oxund yodgorligi o'zining chiroyi, naqshinkor bezaklari va betakror qurilish arxitekturasi bilan o'ziga maftun qiladi. Majmuaga tashrif buyurgan ziyoratchilar va sayyohlar, ulug' donishmand hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar olish bilan birga mohir ustalar mahoratidan bahramand bo'ladi. Mazkur ziyoratgoh to'g'risida so'z yuritishdan oldin Mulla Bozor Oxund haqida to'xtalib o'tsak.

XVII asrning yirik mutasavvufilaridan biri olim va shayx Mulla Bozor Oxundning to'liq ismi Xoja Ubaydulloh ibn Sulton Muhammad Bobur Qoraxon Mulla Bozor Oxunddir. Otasi

avval Turkistonda keyin Qoqon yaqinida yashagan va keyinchalik Namanganga ko'chib kelgan. Uylangandan so'ng ikki nafar o'gil farzand ko'rdi. Ular Mulla Bozor Oxund va Xazrat Olimxo'ja edilar. Shayx otalari vafotidan so'ng, uning o'rnini Mulla Bozor Oxund egalladi.¹ U zot XVI asr oxiri (sanasi noma'lum) Namangan shahrida tavallud topgan. Boshlang'ich ta'limni uyida, keyingi bosqichni Namangan madrasalaridan birida olgan. Ilmga tashnalik uni Turkistonning ilm-u fan markazi bo'lmish Buxoroga olib kelgan. Talabalik yillari oshpazga shogird tushib tirikchilik o'tkazgan. Buxoroda donishmand olim Mirzo Bahodir Buxoriy bilan tanishdi, undan ta'lim oldi. Ustozini pir, o'zini murid hisoblab, uzoq yillar olimning xizmatida yurdi. Mirzo Bahodirdan irshod xatini (pirning yorlig'ini) olgach, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohat qildi. Qoshg'arning Xo'tan, Yorkand shaharlarida bo'ldi. U yerda Hidoyatulloh Ofoq Xo'ja bilan tanishdi. Namanganga qaytgach, qolgan umrini imomlik va mudarrislikka, kishilarni to'g'ri yo'lga solishdek sharaflilik, mashaqqatli yumushga sarf etdi. Mulla Bozor Oxund o'z davrining fiqh, hadis, tarix, geografiya, ilmi hisob, faroiz, adabiyot, ruhiyatshunoslik va boshqa bilimlarni yaxshi egallagan yirik mutafakkir edi. U turkiy, arabiy va forsiyda ijod qilgan shoir hamdir. U zot otashnafas shoir Boborahim Mashrabga ilk saboq bergan, uning shoir bo'lib yetishishiga katta hissa qo'shgan va uni yagona Allohga e'tiqod, foniy dunyo havaslariga ko'ngil qo'ymaslik ruhida tarbiyalagan mehribon ustoz edi. Mulla Bozor Oxund 1668 yil Namanganda vafot etgan. Mamlakatimiz istiqloлга erishish arafasida, 1990 yilda mahalliy aholi hashar yo'li bilan Mulla Bozor Oxund majmuasi qurilishini boshlab yubordi. Biroq, iqtisodiy tanglik tufayli bu qurilish nihoyasiga yetmay qoldi. Muqaddam bu yerda mavjud bo'lgan madrasa va maqbara XX asrning 30-yillarida buzib yuborilgan edi. 1993 yilda me'moriy majmuani qayta tiklash to'g'risida qaror qabul qilindi. O'sha yilning 25 dekabrda majmua asosiy darvoza qismiga qoziq qoqildi. Qurilish ishlari 1994 yilning 18-mayida tugatildi. Uni Namangan bosh me'mori Abdujabbor Abdug'afforov boshchiligidagi yosh, iqtidorli me'mor Odiljon Qodirov amalga oshirdi. Majmua qurilishida Usta Fozil Namangoniyning farzandi Usta Turg'unboy Fozilov hamda Usta Ne'matulla Qo'chqorovlar yetakchiligida eng malakali quruvchilar ishtirok etdilar. Ushbu me'moriy yodgorlik Namangan viloyati hokimining 2006 yil 5-maydagi 200-sonli qarori bilan mahalliy toifadagi madaniy meros obyektini sifatida davlat muhofazasiga olingan.² Viloyat hokimi B.Rapiqaliyev boshchiligidagi o'tkazilgan jamoatchilik vakillari yig'inida qurilishni xayriya-ehson hisobiga bitkazishga qaror qilingan edi. shunga muvofiq majmua qurilishiga tashkilot, korxonalar, muassasalar, saxovatli kishilar o'z hissalarini qo'shishdi. Ja'mi 1 million 259

¹ Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. – Наманган, 2013. Б-82

² <https://meros.uz/uzc/object/mullo-bozor-oxund-maqbarasi>

ming so'm mablag' sarflandi.³ Mulla Bozor Oxund yodgorlik majmuasi 3 qismdan iborat: masjid, asosiy bino (xonaqoh va ziyoratgohga kirish) va darvozaxona. Hovlida diametri 10 metr bo'lgan hovuz bor. U asta-sekin 8 ta o'ttiz santimetrlik qadam bo'ylab pastga tushadi. Uning asosi temir-beton panellardan iborat bo'lib, devorlar va asosiy kirish eshigi noyob figurali dizaynda pishiq g'ishtdan qurilgan.⁴

Asosiy kirish darvozasi pishiq g'ishtdan masjidga kirish joyida qurilgan. Uch gumbazli, o'rtadagi gumbaz kattaroq bo'lib, pastki qismi darvoza uchun mo'ljallangan. Darvozaning ikki tomonida me'zana shaklidagi baland qubbador ustunlar joylashgan. Boshqa ikki gumbaz osti 3,5×3,5 metrli hujralardan iborat. Hujralarning davomi sifatida xonalar qurilgan (9×3,5 metrli).

Jome' masjidning asosiy katta xona-xonaqohi yerto'lali, pishiq g'isht va temir-beton paneldan qurilgan. O'lchami 30×24 metr. Sathi 720 kvadrat metr. Uch tomoni ayvon. Ustunlar va peshtoqi milliy bezaklar berib pishiq g'ishtdan tiklangan. O'lchami 36×6 metr va 24×6 metr, sathi 576 kvadrat metr. Asosiy darvozadan kirishda qibla tomonda ayvonga tutash holda 16 metrli mezana-minora pishiq g'ishtdan bezakli qilib tiklangan, "Alloh, Muhammad" degan yozuvlari bor. Masjid 3 ming namozxonga mo'ljallangan.

Mulla Bozor Oxund maqbarasida olim dafn etilgan. Asosining o'q chizig'i 6 metr, umumiy balandligi 24 metr. Besh qirrali ko'pburchak shaklida avval 8 metr va keyin yetti qirrali ko'pburchak shaklida prizma qilib qurilgan. Ustiga doira shaklidagi qism va gumbaz barpo etilgan. Maqbara ko'rinishi va tuzilishi islomdagi shariat, tariqat qonunlarini ramziy tarzda ifoda etadi. Maqbaraning dastlabki besh qirrali qismi islomdagi 5 amalni, keyingi 7 qirrali qismi imondagi 7 shartni, doira shaklidagi 40 ta qirra 40 farzni ifodalaydi. Bu qismga "Bismillahir rahmanir rohiym, Allah" deb yozilgan. Maqbara qurilishida pishiq g'isht, temir-beton, sopol koshinlar, yog'och eshik va panjaralardan foydalanilgan. Gumbazi metaldan yasilib, sirtiga maxsus qorishmali bo'yoq berilgan. Maqbara ichidagi Mulla Bozor Oxundning ramziy qabriga Xoja Ubaydulloh ibn Sulton Muhammad Bobur Qoraxon Mulla Bozor Oxund. 1079 yilda vafot etgan (milodiy 1668 yil) deb yozilgan. Shuningdek, marmar lavhaga Mashrabning quyidagi bayti bitilgan:

Ma'rifat ishq gulzori Mulla Bozor devona, Oshiqlarning sardori Mulla Bozor devona.

Maqbara tashqarisining shimoli-sharqiy tomonida 2 ta qabr bor. Biri Mulla Bozor Oxundning ustozi va safdoshi Domla Niyoz Oxund ibn Jaloliddin Zominiy qabri. Ikkinchisi shu deparada shahid bo'lganlardan biriniki. Bu noma'lum qabr ulug' mutafakkirning otasi dafn etilgan qabr bo'lishi ham mumkin. Bu marhumlar xoki qurilish ishlari jarayonida topilib, qayta dafn etilgan. Rus sharqshunosi

³ Абдулла Жаббор Наманган Вилояти – Наманган.2011.Б-200

⁴ <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/26026-mulla-bozor-okhund-ma-barasi-a-ida-bilasizm>

Н.С.Ликошиннинг Nodim Namangoniydan olgan ma'lumotlari ichida Mulla Bozor Oxund otasi yoniga dafn etilgani aytiladi. Maqbara hovlisi kompozitsiyasini diametri 10 metrli 8 qirra hovuz to'ldirib turadi. Suv sathi 10 gazdan ortiqroq, bu ham islomdagi suv iste'mol qilish qoida va shartlariga muvofiqlashtirib barpo qilingan.⁵ Viloyat va shahar hokimliklari tashabbusi bilan 2007 – yil mart oyida bu yerda hashar yo'li bilan ta'mirlash ishlari o'tkazildi. Shahar me'morchilik va qurilish boshqarmasi (A.Abdug'afforov), shahar kommunal foydalanish boshqarmasi (M.Турсунов), Respublika badiiy Akademiyasi viloyat bo'limi (AAkbarov), Shahar Nur korxonasi (X.Qozoqov), 3-ta'mir – qurilish bo'limi (V. Toraxo'jayev) kabilar bu yumushni Navruz bayrami arafasida tugatishdi.⁶

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar ro'yxati:

1. Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. – Наманган, 2013. б-115
2. <https://meros.uz/uzc/object/mullo-bozor-oxund-maqbarasi>
3. Абдулла Жаббор Наманган Вилояти – Наманган.2011.Б-200
4. <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/26026-mulla-bozor-okhund-maqbarasi-a-ida-bilasizm>
5. И.Юсупов, Э. Мирзаалиев Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари. Наманган – 2013.б-87

⁵ И.Юсупов, Э. Мирзаалиев Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари. Наманган – 2013.б-40

⁶ Абдулла Жаббор Наманган Вилояти – Наманган.2011.Б-202